

ALLOMALAR MEROSINING ILMIY-MA'RIFIY AHAMIYATI.

Fan oqituvchisi: **Abdullayeva Madina**

Ilhomjonova Oydinoy

Andijon Iqtisodiyot va Pedagogika universiteti

Xorijiy tillar fakulteti ingliz tili va adabiyot

ta'lim yōnalishi 1-bosqich talabasi.

Annotatsiya: Bizning yurtimiz donishmandlar yurti ekanligini va ularni tarixiy merosini ilmiy tadqiq qilish har bir insonni burchi. Hozirgi kunga qadar buyuk allomalarning ulkan hissasi tufayli bizning yurt madaniyatli, ma'naviyatli mustaqil davlat bōlib kelmoqda. Ushbu maqolada yurtimizdan yetishib chiqan allomalarni muhaddislar hayoti, asarlari ularni ilmiy marifiy ahamiyati keng yoritilgan.

Kalit sōzlar: *Ōzbekiston, allomalar, muhaddislar, faqixlar, mutasavviflar, ijodkorlar, buhoriylar nasafiylar, samarqandiyalar, Buxoriy, Termiziy, Yasaviy.*

Ōzbekiston zaminida buyuk allomalar yetishtirgan bu dunyo tamadduniga bebaho ma'naviy hazina tuhfa etgan zamindir. Bu zamindan islom ilmi va madaniyati rivojiga ulkan hissa qōshgan buyuk mutasavviflar, ijodkorlar yetishib chiqan, chunonchi mintaqamizda yuksak tamaddun IX-XI asrlarda yuqori bosqichga yetgan bōlsa-da, ma'rifiy takomil ildizlari uzoq tarixga borib taqaladi. Ajdodlarimizning ma'rifiy intilishlarini qadimgi "Avesto", "Ōrxun-Enasoy" bitiktoshlari, Behustin qoyatosh yozuvlari va xalq oġizaki ijodi namunalari hisoblangan qōshiqalar, marsiyalar qahramonlik va marosim qōshiqlaridan bilib olish mumkin. Bu dastlabki manbalar xalqning ma'naviy olami, turmush tarzi, siyosiy vaziyat, ijtimoiy hayot haqida muayyan tasavvur beradi. Ulardagi ġoyaviy umumiylik esa ajdodlarimizning ezgulikka, yaxshilikka, mardlikka intilganini kōrsatadi. Keyingi davrlarda tilshunoslik sohasi rivojiga ulkan hissa qōshgan Mahmud Qōshġariy, Yusuf Xos Hojib, Burhonuddin Rabġuziyning ilmiy-adabiy merosini turkiy xalqlar madaniyatining yuksak namunasi sifatida baholash, ġoyaviy qarashlarni xalqona uslubda sodda va ravon tarzda yetkazgan bebaho badiiy ijod deyish mumkin. Mintaqamizda islom dini kirib kelishi ma'rifiy takomil yuqori bosqichga chiqishiga, yuksak tamaddun shaklanishiga asos bōldi. Islom dinining ezgulikka, bunyodkorlikka yōġrilgan ġoyalari ilm ahlini ġoyaviy oziqlantirdi, mazmunan ilhomlantirdi. Mintaqamiz allomalari islom ilmlari bōyicha sermahsul ilmiy ijod qildi. Xususan, Imom Buxoriy, Imom Termiziy, Imom Moturidiy, Mahmud Zamaxshariy, Burhoniddin Marġiloniy, Qaffol Shoshiy, Abu

Muin Nasafiy, Abul Barakot Nasafiy Alouddin Buxoriy va boshqa qanchadan-qancha buxoriylar nasafiylar, samarqandiylarni, shuningdek, tasavvuf ilmida Abduxoliq Ğijduvoni, Bahouddin Naqshband, Mustamliy Buxoriy, Kalobodiy Buxoriy, Najmiddin Kubro, Hakim Termiziy, Azizuddin Nasafiy Ahmad Yassaviy va boshqa kōplab mutasavviflarni tilga olish mumkin. Allomalarning ma'rifiy merosida birgina hadis yoki fiqh ilmi bōyicha ma'lumotlarni emas, balki islom ilmlari bōyicha keng doiradagi yondashuv, chuqur ilmiy-adabiy qarashlarni kōramiz.

Jumladan, buyuk muhaddis Imom Buxoriy hadis ilmining bilimdoni bōlibgina qolmay, balki tafsir ilmining rivojiga ham munosib hissa qōshgan. Muhaddis olim "Jomius sahih" asarida tafsirga baġishlagan "Qur'on tafsiri kitobi" da "Fotiha" surasini tafsir qilib unda Abu Said ibn Muallodan rivoyat qilingan Qur'onning eng uluġ surasi "Fotiha" ekan tōġrisidagi hadisni keltirib o'tgan. Shuningdek bu bobda, jami 358 ta oyatga sharh bergan. Bundan kōrinadiki muhaddis faqat hadis ilmi bilan cheklanmay, mufassir olim sifatida tafsir ilmi borasida ham o'zining qimmatli ilmiy qarashlarini bayon etgan. Abulqosim Mahmud az-Zamaxshariy 1075-yilda Xorazmning Zamaxshar qishloġi hozirgi Xorazm viloyati Qōshkōpiz tumanida dunyoga kelgan. U madrasada Arab tili va grammatikasini, diniy ilmlarini chuqur o'rgana boshlaydi. Ilmga bōlgan chanqoqlik uni Buxoro, Mavr, Nishopur, Isfahon, Shom Suriya, Boġdod, Hirot va Makkada hayot kechirib, arab tili va adabiyotini, diniy ilmlarni xattotlik san'atini, arab maqollarini va urf odatlarini chuqur o'rganishiga sabab bōladi. Mahmud az-Zamaxshariy turli soha ilmlariga doir 50dan ortiq asar yozib qoldirdi. Mahmud az-Zamaxshariy arab tili fonetikasi va morfologiyasiga baġishlangan "Al-Mufassal" Qur'on Karim tafsiriga oid "Al-Kashshof" asari butun musulmon olamida mashhurdir. Mahmud az-Zamaxshariy "Jorulloh" "Ollohning qōshnisi", "Arab va ġayri arablar ustoz", "Xorazm faxri" kabi sharafli nomlar bilan uluġlangan. Qohiradagi mashhur Al-Azhor diniy dorulfunining talabalari hozir ham "Al-Kashshof" asosida Qur'oni Karimni o'rganadilar.

IX-X asrlarda kalom ilmi rivojida Abu Mansur Moturidiy ilmiy merosining o'rne va ahamiyati juda yuqoridir. Alloma ta'limotining yuzaga kelishiga o'sha davrdagi turli aqidaviy adashishlar, nizo va ixtiloflar ehtiyoj tuġdirganini asarlarining mohiyati va ilgari surgan ġoyaviy qarashlaridan bilib olish mumkin. Uning "Tavilotul Qur'on" yani "Qur'on ta'villari" asari Qur'on karim tafsiri bōlsada oyatlar turli aqidaviy qarashlarga raddiya sifatida sharhlangan. Shu jihatdan, kitobni "aqidaviy tizimlari mustahkam ishlab chiqilgan va o'sha davr diniy oqimlari tōġrisida ma'lumot beruvchi muhim asar" deyish mumkin. Ayniqsa olimning mashhur "Kitobut tavid" "Allohning yakka-

yagonaligi"asari kalom ilmi bōyicha muhim manba bōlib,bugungi kunga qadar yuksak ilmiy-ma'rifiy ahamiyat kasb etib kelmoqda.Abu Mansur Moturidiyning qarashkarini keyingi davr olimlaridan Abu Hafs Nasafiy ham qōllab quvvatlagan va uning ğoyalarini davomchisi sifatida "Aqoidun Nasafiy"asari orqali sof aqidaviy masalalarni yoritgan.Bu asarga mahshur alloma Taftazoniy yuqori baho berib Abu Hafs Nasafiyning "Aqoidun Nasafiy""Aqoidun Nasafiy"asari kalom ilmini oġrganishda eng foydali va qulay manbadir degan.Bu borada Abu Muin Nasafiy,Abul Barakot Nasafiy,Alouddin Buxoriy va boshqa kalom ilmi olimlarining qarashlarini ham sof e'tiqod tarġibotchilari sifatida baholash mumkin.Burhonuddin Marġiloniyning "Hidoya"asari qimmatli manbalardan bōlib,necha asrlardan buyon fiqh ilmiga oid izchil va mukammal qōllanma sifatida oġqib kelinadi.Jumladan "Hidoya" asari yurtimizda sovet sud tizimi joriy qilingunga qadar huquqshunoslik boyicha asosiy qōllanma bōlgan.Bu asar bugungi kunda ham oġz ahamiyatini yōqotmagan holda islom huquqiga oid qimmatli manba sifatida soha mutaxassislari tomonidan huquq va majburiyatlarini belgilashda ma'yyan darajada asos bōlib xizmat qilmoqda.Ma'lumki,Mavarounnahrda tasavvuf ilmi bōyicha oġziga xos katta maktab yaratilgan.Tasavvuf ta'limotining komillik sari intilishga,halol,pok,kamtar bōlishga,ezgu ishlar qilishga,qaratilgan yuksak ğoyalari,ilm ahlini hamisha qiziqtirib,ilmiy-nazariy asarlar,badiiy ijod namunalarini yaratishga va tasavvufiy tamoyillar bilan yashashga undagan.Bunday insonlar mutasavvif olim bōlib sōfiylikning tartib-qoidalari,ma'naviy kamolot yōli va amaliy hayotda yashash tartiblarini belgilab beruvchi tariqatlarini yaratgan hamda oġz ilmiy-adabiy asarlari orqali ilohiy ishq,ruhiy poklik ma'naviy yuksalish ğoyalarini ilgari surgan.Xōjagon tariqatining asoschisi yirik mutasavvif olim Abduxoliq Ğijduvoniyy komillikka yetuklikka intilish yōllari va asoslarini 8 qoida rahshada kōrsatib bergan bōlsada,ikki asrdan keyin alloma ishlarining davomchisi Bahouddin Naqshband 3tasini qōshib jami 11 qoida orqali butun dunyoga mashhur naqshbandiya tariqati yuzaga kelishiga sababchi bōldi.Abduxoliq Ğijduvoniyy komillik borasidagi qarashlarini,umum insoniy ğoyalarini asosan oġz asar va oġgitalari orqali ilġor surgan.Jumladan,alloma "Vasiyatnoma"risolasida:Barcha odamlarga mehr-shafqat nazari bilan boq!Hech kimsani oast sanama!Xalq bilan talashib -tortishma!Hech kimdan biror narsa istama,tama qilma!Birovlarga xizmat buyurma!Hamma ishni oġzing qilishga va bajarishga oġrgan!Hech kimga hargiz yomonlik qilma!Mol-dunyo bilan bōlma deydi.Allomaning diniy-falsafiv qarashlari chuqur ma'noga ega bōlib, turli nizolar,qarama-qarshiliklar avj olgan bugungi kunda shafqatli

bağri keng bōlishiga,insoniylik,yaxshilik,ezgulik,poklik asosida yashashga tarğib etadi.Mutasavvif olimning ilmiy-adabiy merosida va tasavvufiy qarashlarida kamtarlikka, halol mehnat qilishga,xalq dardi bilan yashashga,umrni qadrlashga xotirjamlikka da'vatni kōramiz.Alloma ōgitalarida "Xalq oğirini yengillatish lozim,bu muyassar bōlmaganda halol kasb-hunar egallab,dil ba yoru dast ba har'holatida bōlmoqlik amri muqarrar turur"deydi.Abduxoliq Ğijduvoniy vasiyatlarida ilmi,odobli,taqvoli bōlish,fiqh,hadis ilmlarini egallash,ulamolarning izidan yurish,mansabga qattiq boğlanmaslik,halol yeyish,mashhurlikka intilmaslik kabi qator insoniy fazilatlarini ilgari suradi.Keyinga davr mutasavviflari tasavvuf ta'limotini fan sifatida ilmiy jihatdan ōrgandi va uning chuqur ilmiy-nazariy asoslari,komil inson konsepsiyasini ishlab chiqdi va shu tariqa yirik hajmli asarlar yuzaga keldi.Xususan Hakim Termiziy sharqiy sufizmning mashhur namoyondasi,80dan ortiq asarlar muallifi Al-Termiziy chuqur ilm va keng dunyoqarashga ega bōlgani uchun "Al-Hakim"dono degan taxallusni olgan Al-Termiziy "Xatmul avliyo"Valiylar muhri asari orqali valiylik nazariyasini ilmiy asoslagan bōlsa,Azizuddin Nasafiy "Kashful haqoiq""Haqiqatlarni ochilishi","Zubdatul haqoiq""Haqiqatlar qaymoği" va boshqa asarlari orqali komil inson konsepsiyasini Kalabodiy Buxoriy esa "Taarruf mazhab ahlit tasavvuf","Tasavvuf ahli yōli bilan tanishuv"mōjaz asarlari va unga Mustamliy Buxoriy "Sharh Taarruf li mazhab ahlit tasavvuf "yani"Tasavvuf yōli bilan tanishuv"asariga sharhi orqali tasavvuf nazariyasi bōyicha yaxlit va mukammal ma'lumotlarni asoslab berdi.Tasavvuf faniga birinchi bōlib ilmiy asos solgan olim sifatida Kalobodiy nomi tilga olinadi.Yuqorida ta'kidlaganidek,asarlarning ilmiy-ma'rifiy jihatlarni mufassal kōrsatish,ma'no-mazmunini kengroq ochish uchun yirik hajmli sharhlar yozilgan.Jumladan,birgina Kalobodiy Buxoriyning "Taarruf li mazhab ahlit tasavvuf"deb nomlangan hajman,kichik asariga arab va fors tillarida koplak sharhlar bitilgan.Yuz mingdan ziyod hadis bilgan Kalobodiy Imom Buxoriyning "Jameus sahih"asariga sharh yozgan.Tasavvufiy sharhlar orasida ta'limotni ilmiy-nazariy jihatdan chuqur ōrgatadigon mufassal asar sifatida Mustamliy Buxoriyning"Sharh taarrufli mazhab ahlit tasavvuf"asari nihoyatda mashhur bōlganini aytish joiz.Tasavvuf sōfiylik -islomda insonni ruhiy va axloqiy jihatdan komillik sari yōllovchi ta'limot.Tasavvuf sōzining ōzagi va mazmuni haqida olimlar turli fikr va taxminlar bildirishgan.Ular ichida Ibn Xaldunning fikri haqiqatga yaqin deb etirof etilgan.Mutasavvif olim tasavvufiy istilolar shahri orqali olam va inson,haq va haqiqat haqidagi qarashlarini falsafiy mushohodalar asosida talqin etadi.Jumladan,inson va uning ne'matlarga shukri borasida "Banda toat choğida ōz toatini emas,balki

Xudo bergan ne'matni kōrib,unga shukrona keltirishi kerak"Bandatimsiz shukr qilsa haq unga timsiz ne'mat beradi deydi.Bu bilan Alloh bugun har bir narsani u xoh moddiy,xoh ma'naviy bōlsin,yaratganning inomi sifatida qabul etish,rozi bōlgan holda qilish kerakligini aytadi.Shukur ham bir ibodat ekanini,buning ketidan cheksiz ne'matlarga erishish,haqning roziligiga muyassar bōlgan holda suyukli bandalariga aylanishi mumkinligini falsafiy mushohodalar orqali izlaydi.Al-inson al-Komil arabcha sōfiylikda Allohning yerdagi noibi va uning sifatleri va ismlarining namoyon bōlgan ideal shaxs.Al-inson al-komil butun dunyoning maqsadi va mantiqiy xulosasidir.Ilohiy iroda faqat u orqali ifodalanadi.Agar al-inson al-komil bōlmaganida,Alloh yaratgan dunyoda zohir bōlmas edi.Al-inson al-komil har bir insonda ōzini namoyon qilishi mumkin,lekin bunga faqat sōfiylik ruhiy amaliyoti bağrida erishiladi.Komil inson barkamol inson hamdir.Barkamol inson deganda hamma tomonlama,yetuk deganini tushiniladi.Mustaqil fikrlar oladigon,dunyoqarashi va tafakkuri keng barkamol yoshlar yurtimiz taqdirini hal qiladilar.Ya'ni mustaqil dunyoqarashga ega,ajdodlarimizning bebaho merosi va zamonaviy tafakkuriga tayanib yashaydigan barkamol shaxs-komil insondir.Hamma ōz tarixini uluğlaydi.Lekin bizning yurtimizdagidek boy ōtmish,bobolarimizdek buguk allomalar hech qayerda yōq.Bu merosni chuqur ōrganishimiz,xalqimizga dunyoga yetkaza bilishimiz kerak.Bu maskanga kelgan odam ulkan merosimiz haqida tōla tasavvuriga ega bōlishi,katta ma'naviyat olib ketishi zarur.

Xulosa qilib aytganda ōz ilmiy kashfiyotleri bilan jahon tamadduniga babaho hissa qōshgan allomalarining hayoti ularni merosini qadrlay bilish talab qilinadi.Bu zamindan yetishib chiqan buyuk allomalar islom ilmlarni rivojiga ulkan hissa qōshgan.Necha asr ōtsa hamki,ularning merosi ilmiy-ma'rifiy ahamiyatini yōqotmagan holda inson kamolot va jamiyatning ma'rifiy rivoji uchun muhim va bebaho ma'naviy boylik bolib xizmat qilib kelmoqda.

1 Hamidjon Homidiy.Tasavvuf allomalari—Toshkent."sharq"nashriyoti .2004-2008bet.

2N.Uluqov.Ōzbek tili gidronimlarining tarixiy lisoniy tadqiqot.T:Fan.2008

3Islom manbashunosligi ōquv qōllanma

4Azizuddin Nasafiy Zubdatun haqiq.

5Abduxoliq Ğijduvoni vasiyatnoma 1993